

INGLIZ TILIDA OG’ZAKI NUTQ KO’NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA AUTENTIK MATNLARNING AHAMIYATI

Jaloliddin Qosimov Abduvali o’g’li

Namangan Chet Tillar Instituti doktoranti

Ingliz tili o’qituvchisi, Learning Skills Lab (nodavlat ta’lim muassasasi)

Annotatsiya. Maqolada autentik matnlarning ingliz tilida so’zlashuv kompetensiyasini takomillashtirishning amaliy masalalari va ularning o’quv materiallari bilan asosiy tafovutlari ko’rsatib o’tilgan. Autentik matnlar – bu ingliz tilini o’rganayotgan talabalar uchun ijtimoiy hayotda kommunikativ ko’nikmalarini amalga oshirishda va bu ko’nikmalarni takomillashtirishda til sohiblari uchun mo’ljallangan manbalarlardan foydalanishni o’z ichiga oladi. Shuningdek, autentik matnlar til birliklari asosan grammatik va leksik jihatdan talabalar real hayotda erkin foydala olish imkoniyatini beruvchi birliklar bilan tanishish imkonini beradi. Bunday materiallar til sohiblari(native speakers) uchun mo’ljallangan barcha ro’znoma, kitob, jurnal, e’lon, adadiy va ilmiy nashrlarni o’z ichiga oladi. O’quv materiallari esa maxsus o’qitish maqsadida metodistlar tomonidan tayyorlangan, tahrirlangan va akademik maqsad va ta’lim muhitiga moslashtirilgan bo’ladi. Bundan tashqari, bu ilmiy maqola autentik(asliy) materiallarning talabalarning kommunikativ-nutqiy ehtiyojlariga muvofiqligi, ularning motivatsiyasiga ta’siri va til o’zlashtirishni osonlashtirishdagi nazariy va amaliy ahamiyati ko’rsatib o’tilgan. Eng asosiy yna bor omillardan biri, bu maqolada o’quv jarayonini tashkil etishda autentik matnlarni darslik va o’quv qo’llanmaga kiritishda ularning afzalliklari va kamchiliklari alohida yoritib o’tilgan.

Kalit so’zlar: chet tili, so’zlashuv kompetensiyasi, autentik materiallar, til sohiblari, akademik ehtiyoj, motivatsiya, o’rganilayotgan til (L2), samaradorlik, madaniy kompetensiya.

ЗНАЧЕНИЕ АУТЕНТИЧНЫХ ТЕКСТОВ В УЛУЧШЕНИИ НАВЫКОВ РАЗГОВОРНОГО АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Джалолиддин Косимов, сын Абдували

Докторант Наманганского института иностранных языков

Преподаватель английского языка, Лаборатория навыков обучения

(негосударственное образовательное учреждение)

Аннотация. В статье освещаются практические вопросы совершенствования английской речевой компетенции по аутентичным текстам и их основные отличия от учебных материалов. Аутентичные тексты – это использование ресурсов, разработанных для носителей языка, с

целью отработки и совершенствования их коммуникативных навыков в социальной жизни для студентов, изучающих английский язык. Кроме того, аутентичные тексты позволяют учащимся знакомиться с языковыми единицами, которые они могут свободно использовать в реальной жизни как в грамматическом, так и в лексическом плане. К таким материалам относятся все газеты, книги, журналы, рекламные объявления, газетные и научные публикации, предназначенные для носителей языка. Учебные материалы готовятся, редактируются и адаптируются к академическим целям и учебной среде методистами для конкретных учебных целей. Кроме того, в данной научной статье демонстрируется теоретическая и практическая значимость аутентичных (оригинальных) материалов в удовлетворении коммуникативных и речевых потребностей учащихся, их влияние на их мотивацию и способность содействовать усвоению языка. Одним из важнейших факторов является то, что в статье специально подчеркиваются преимущества и недостатки включения аутентичных текстов в учебники и учебные пособия при организации процесса обучения.

Ключевые слова: иностранный язык, коммуникативная компетенция, аутентичные материалы, носители языка, академические потребности, мотивация, целевой язык (L2), эффективность, культурная компетентность.

THE IMPORTANCE OF AUTHENTIC TEXTS IN IMPROVING ORAL SPEAKING SKILLS IN ENGLISH

Jaloliddin Qosimov Abduvali oglu

PhD student at the Namangan Institute of Foreign Languages

English teacher, Learning Skills Lab (non-state educational institution)

Annotation. *The article discusses the practical issues of improving English speaking competence using authentic texts and their main differences from educational materials. Authentic texts are resources intended for native speakers of English to implement their communicative skills in social life and improve these skills. Authentic texts also allow students to get acquainted with language units, mainly grammatical and lexical, which allow them to freely use in real life. Such materials include all newspapers, books, magazines, advertisements, literary and scientific publications intended for native speakers. Educational materials are prepared, edited and adapted to the academic goals and educational environment by methodologists for special teaching purposes. In addition, this scientific article shows the correspondence of authentic materials to the communicative and speech needs of students, their impact on their motivation and their theoretical and practical significance in facilitating language acquisition. One of the most important factors is that this article separately highlights the advantages and disadvantages of including authentic texts in textbooks and study guides in organizing the learning process.*

Keywords: *foreign language, conversational competence, authentic materials, native speakers, academic needs, motivation, language being studied (L2), effectiveness, cultural competence.*

Kirish

Til o'rganish va o'qitish turli jamiyat vakillari uchun doimo muhim masala hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz tilini o'qitish (ELT) sohasidagi o'qituvchilar uchun zamonaviy metodikalarni amaliyotga tadbiq etish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash bugungi kunning dolzarb masalasidir. O'quvchilarning til o'rganishdagi ehtiyojlarini qondirish va zamonaviy til o'qitish metodlarini qo'llash jarayonida o'quv materiallarini to'g'ri tanlashga alohida e'tibor berish talab etiladi. Mazkur maqolada autentik materiallarning o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi amaliy o'rni alohida ta'kidlangan. Dunyo va yurtimizda keng jamoatchilik tan olgan tajribalar asosida autentik matnlarni tizimli qo'llash orqali mazmunli ta'lim jarayonini tashkil etish va haqiqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritiladi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda ingliz tilini o'qitishda autentik materiallar va o'quv materiallarining qo'llanilishi qiyosiy tahlil qilindi. Widdowson (1978) ta'rifiga ko'ra, autentik materiallar – bu gazeta, jurnal, reklama va badiiy matnlar kabi aslida til sohiblari uchun yaratilgan resurslardir. O'quv materiallari esa maxsus o'qitish uchun ishlab chiqilib, akademik ehtiyojlarga moslashtirilgan.

Qiyosiy tahlil autentik va ta'lim materiallarining o'quvchilarning kommunikativ ehtiyojlariga javob berish qobiliyati va ularning motivatsiya hamda madaniy kompetensiyani rivojlantirishdagi samaradorligini o'rgandi. Tadqiqot ma'lumotlari Krashen (1985) va Gilmore (2007) kabi olimlarning ilmiy asarlari va case study natijalaridan olindi.

Natijalar

1. Haqiqiy til bilan uyg'unligi: Krashen (1985) fikriga ko'ra, autentik materiallar o'quvchilarga sinfdan tashqarida duch keladigan tilni aks ettiradi. Ular o'quvchilarga barqaror iboralarni, madaniy xususiyatlarni va kontekstga xos tilni

o’zlashtirish imkonini beradi. O’rganilayotgan matn tarkibidagi, misol uchun, barcha til birliklarini eng asosiy qismini tabiiy usulda ham o’zlashtirib ham amaliyotda qo’llash imkoniyatini beradi. Ammo, bu xususiyat, o’quv materiallarga hos emas.

2. Motivatsiya va qiziqishni oshirish: Prokhorova va Sternin (2006) o’z tadqiqotlarida autentik materiallardan foydalanish o’quvchilarning qiziqishi va darslarda ishtirokini sezilarli darajada oshirishini isbotladilar. Ya’ni, autentik materiallar o’z ichida turli hil mavzularni qamrab olganliklari uchun ular auditoriya uchun doimo qiziqarli deb baholanadi. Masalan, universitet yoki institute talabasi uchun mashhur insonlar haqidagi bahs munozaralar, sog’lom bo’lish sirlari yohud ilm fan rivoji haqidagi yangilik va suhbat yoki matnlardan dars jarayonida ma’lum bir til ko’nikmasini rivojlantirish uchun ishlatilsa, talabalar dars jarayonida bu mavzuga aloqador topshiriqlarni o’zlari istab bajaradilar va bu til o’rganish va o’rgatish jarayonida eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

3. Madaniy kompetensiyani rivojlantirish: Autentik materiallar o’quvchilarni til qo’llanilishining sotsiolinguistik va madaniy kontekstlari bilan tanishtiradi. Bu esa ularning madaniy farqlarni tushunishini chuqurlashtiradi va turli kommunikativ vaziyatlarda muvaffaqiyatli muloqot qilish qobiliyatini oshiradi.

4. Amaliy muloqot ko’nikmalari: Gilmore (2007) tadqiqotiga ko’ra, autentik matnlardan foydalangan o’quvchilar tabiiy nutqni tushunish va ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka ega bo’ladilar.

Munozara

Ta’lim materiallari o’quvchilarga tizimli bilim berishda muhim bo’lsa-da, ular haqiqiy muloqot uchun zarur bo’lgan til unsurlarini yetarli darajada taqdim etmasligi mumkin. Autentik materiallar esa tilning madaniy va lingvistik jihatlarini tabiiy shaklda aks ettirib, o’quvchilarni o’rganayotgan til bilan chuqurroq bog’laydi. Shunga qaramay, autentik matnlarning boshlang’ich darajadagi o’quvchilar uchun murakkabligi va o’qituvchilarni ularni samarali qo’llashga tayyorlash zarurati kabi muammolar ham mavjud. Jalolov (2012) autentik materiallar o’quvchilar uchun dinamik va qiziqarli ta’lim muhiti yaratishini ta’kidlagan. Ular mavzularni shaxsiy qiziqishlarga muvofiq o’rganish imkonini berib, haqiqiy hayotiy tajribalar bilan bog’lanishga xizmat qiladi. Bunday materiallarni dars jarayoniga kiritish orqali o’qituvchilar o’quvchilarning tilni o’zlashtirish samaradorligini oshirishi va ularni zarur kommunikativ ko’nikmalar bilan ta’minlashi mumkin.

Xulosa

Ingliz tilini o'qitishda autentik materiallardan foydalanish haqiqiy tilga duch kelish, motivatsiyani oshirish va madaniy hamda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish kabi ko'plab foydali jihatlarni taqdim etadi. Ta'lim materiallari tizimli til o'qitishda muhim rol o'ynasa-da, autentik matnlar o'quvchilarga haqiqiy muloqot uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Shu sababli, o'qituvchilarga o'z pedagogik amaliyotlariga autentik materiallarni kiritish orqali mazmunli va samarali ta'lim jarayonini tashkil etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Widdowson, H. G. (1978). *Teaching Language as Communication*. Oxford University Press.
2. Krashen, S. D. (1985). *The Input Hypothesis: Issues and Implications*. Longman.
3. Gilmore, A. (2007). Authentic materials and authenticity in foreign language learning. *Language Teaching*, 40(2), 97-118.
4. Prokhorova, Yu. E., & Sternin, I. I. (2006). *Russian Communicative Behavior*. Flinta.
5. Jalolov, J. (2012). *Chet tili o'qitish metodikasi*. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi.